



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI
HUZURIDAGI MAKTABGACHA TA‘LIM AGENTLIGINING
BUYRUG‘I

2023-yil 3 - iyul

72 -son

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi
huzuridagi Maktabgacha ta‘lim agentligida doimiy faoliyat yuritadigan xarid
komissiyasi va tovar-moddiy qimmatliklarni hisobdan chiqarish komissiyasi
tarkiblarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni va Vazirlar Mahkamasining “Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq tartib-taomillarni tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2022-yil 20-maydagi 276-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:

Maktabgacha ta‘lim agentligi huzurida doimiy faoliyat yuritadigan xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha ta‘lim agentligi balansidagi tovar-moddiy boyliklarni hisobdan chiqarish komissiyasi tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Maktabgacha ta‘lim agentligi (keyingi o‘rinlarda - agentlik) ehtiyoji uchun xarid qilinadigan tovarlar (ishlar va xizmatlar) O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunda belgilangan davlat xaridlarini amalga oshirish me‘zonlari asosida xarid qilinsin.

3. Ishlar bo‘limi (R.Irisov) hamda tegishli boshqarma va bo‘limlar bilan birgalikda xarid qilinadigan tovarlarning (ishlarning va xizmatlarning) texnik tasnifi, narxi va boshqa talablarni ishlab qichib, buyurtmanomani shakllantirib xarid komissiyasi rahbariga taqdim etsin.

4. Buxgalteriya (Q.Zikirov) tovarlarni (ishlarni va xizmatlarni) xarid qilish bo‘yicha xarid komissiyasi rahbari tomonidan tasdiqlangan buyurtmanomalarni maxsus axborot portaliga joylashtirish uchun mas‘ul etib belgilansin.

5. Eng yaxshi takliflarni tanlash va tender o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lonni va tanlash yoki tender hujjatlarini agentlikning rasmiy veb saytiga joylashtirish Axborot xizmati (M.Askarxodjayeva) zimmalariga yuklansin.

6. Xarid komissiyasining xar bir a'zosi ijrochini aniqlash tartib-taomillari davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va qonuniyligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq javobgar hisoblanadi.

7. Xarid komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-son Qarori bilan tasdiqlangan Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizomning 3-ilovasi (Eng yaxshi takliflarni tanlash vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish sxemasi) da ko'rsatilgan muddatlardan kechikmagan holda zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishlari shartligi belgilab o'tilsin.

8. Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi (A.Odilov) agentlik markaziy apparati tegishli tarkibiy bo'linmalariga ijro qilish uchun yetkazsin.

9. Mazkur buyruqning qabul qilinishi munosabati bilan quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin:

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining "Vazirlik huzurida doimiy faoliyat yuritadigan xarid komissiyasi tarkibi, tovar-moddiy qimmatliklarni hisobdan chiqarish komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 30-iyuldagi 145-sonli buyrug'ining 1-bandi hamda 1- va 2-ilovalar;

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining "Vazirlik huzurida doimiy faoliyat yuritadigan xarid komissiyasi tarkibi, tovar-moddiy qimmatliklarni hisobdan chiqarish komissiyasi tarkibini tasdiqlash to'g'risida" 2021-yil 30-iyuldagi 145-sonli buyrug'iga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2022-yil 15-fevraldagi 24-sonli buyrug'i.

10. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish direktor o'rinbosari N.Muslitdinov zimmasiga yuklatilsin.

**Maktabgacha va maktab ta'limi
vazirining birinchi o'rinbosari -
maktabgacha ta'lim agentligi direktori**



A.Shin

**Maktabgacha ta'lim agentligi huzurida doimiy faoliyat
yuritadigan xarid komissiyasi
TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.	Boshqarma (bo'lim) nomi va lavozimi
1	N.Muslitdinov	Direktor o'rinbosari-rais
2	Sh.Pardayev	Moliya-iqtisod va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i-a'zo
3	B.Nabixo'jayev	Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi boshlig'i-a'zo
4	Z.Usanov	Maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i-a'zo
5	R.Irisov	Ishlar bo'limi boshlig'i-a'zo
6	A.Djurayev	Axborot xavfsizligini ta'minlash va raqamlashtirish bo'limi boshlig'i- a'zo
7	A.Agasiyev	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ovqatlantirishni ta'minlash boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari-a'zo
8	A.Baratov	Ishlar bo'limi xo'jalik mudiri, tanlov komissiyasi kotibi (<i>ovoz berish xuquqiga ega emas</i>)

Izoh:

- 1.Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga mazkur lavozimlarga yangi tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan shaxslar kiritiladi.*
- 2. Xarid komissiyasi a'zolarining tarkibi va soni olinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zgarishi mumkin.*

**Maktabgacha ta'lim agentligi balansidagi tovar-moddiy boyliklarni
hisobdan chiqarish komissiyasi
TARKIBI**

T/r	F.I.Sh.	Boshqarma (bo'lim) nomi va lavozimi
1	N.Muslitdinov	Vazir o'rinbosari-rais
2	R.Zulfiqorov	Bosh hisobchi-a'zo
3	R.Irisov	Ishlar bo'limi boshlig'i-a'zo
4	A.Odilov	Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi boshlig'i- a'zo
5	A.Djurayev	Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligi boshqarmasi boshlig'i- a'zo
6	K.Sattarov	Buxgalteriyada bosh mutaxassis-a'zo
7	A.Xakimov	Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'limi boshlig'i-a'zo
8	A.Baratov	Ishlar bo'limi xo'jalik mudiri- kotib

Izoh: Ishchi guruhi a'zolidagi xodim ishdan ketgan taqdirda o'rniga qabul qilingan xodim komissiya a'zosi hisoblanadi.